



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2025/1 (14)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining
2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan
o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy
nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin
bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
ZOXIDOV Azamat Azamjonovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*
ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*
TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Сандова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*
Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*
Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*
Маъруфова Гулнора Махмудовна – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщин и гендерного равенства.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*
Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*
Сандов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*
Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*
Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*
Зохилов Азамат Азамjonovich – *доктор экономических наук, профессор.*
Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*
Абдусаматов Хасанбой Усмонjon угли – *доктор психологических наук.*
Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Marufova Gulnora Makhmudovna – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*
Zokhidov Azamat Azamjonovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*
Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*
Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

MENEJMENT

Xaydarova J.A. Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish zaruriyati.....	4
--	---

SOTSILOGIYA

Muxamedjanova L. Oilaviy munosabatlarda yuksak ideallar – adolat, muhabbat, do'stlik, birodarlik, o'zaro hurmat-izzat tamoyillari.....	12
Axmedova D.O. Mehnat migratsiyasi feminizatsiyalashuvi: xotin-qizlar psixologiyasi va ijtimoiy identifikatsiya	19
Vaxidova S.A. Gender rollarining evolyutsiyasida ta'lim institutining o'rni: avlodlararo ijtimoiy tahlil.....	26
Komilova X.T. Xotin-qizlar ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining sotsiologik tahlili	37
Xudoyberdiyeva M. O'smir yoshlarda kitobxonlik tushunchasi va kitob o'qishni rag'batlantirishga qaratilgan tadqiqot natijalari tahlili.....	42
Alimasov V.A. O'zbekistonning oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi (ijtimoiy-falsafiy yondashuv).....	47
Samanova Sh.B. Ekologik sivilizatsiya rivojida inson-tabi'at munosabatlarining o'zgarib borishi	53

OILA VA JAMIYAT

To'rayev O.B. Jamiyat transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy xavfsizlik holatiga demografik omilning ta'siri	59
Saipova M.L. Migratsiya dahl qilgan oilalarda voyaga yetayotgan o'smirlarda o'z-o'zini dolzarblashtirish jarayoni	68
Abduraximova F.Y. Oilalarda ma'naviy qadriyatlar vositasida xotin-qizlar faolligini takomillashtirishning innovatsion usullari	73
Ganiyev A.A. The role of pre-migration expectations in post-migration stress among Uzbek immigrants in Russia	77
Toshmurodov M.I. Oilaviy qadriyatlar va ularni harakatlantiruvchi determinantlar tasnifi	82

PSIXOLOGIYA

Bo'riyeva M.Sh. Oila institutini mustahkamlashning psixologik aspektlari	88
Yangiboyeva D.R. Ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari	93
Raximova X. Oilada shaxsdagi stress va o'ziga nisbatan ishonchsizlik moddiy yetishmovchilik hissini yuzaga keltiruvchi psixologik omil sifatida	99
Nasrullayeva A.A. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixosotsial determinantlari	104
Sultanova S.M. Ayollarda aybdorlik hissi vujudga kelishining sabablari	110
Абдуганиева Д.А. Влияние семейного микроклимата на эмоциональное состояние личности в контексте тревожности	115
Асанова Г.М. Процессы социально-психологической адаптации родителей детей, больных онкологией	122
Olimjonova Z.B. Sevgining ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida xorij olimlari tomonidan tadqiqi...128	
Sharipova A.S. Analysis of the features of adaptation of adolescents to society in conditions of living in a family with violence	136

PEDAGOGIKA

Matkarimov A.M. Xalqaro baholash tadqiqotlari asosida oilaning ta'limiy funksiyasini rivojlantirishga qaratilgan tahlil va tavsiyalar.....	141
---	-----

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Hojiyev R.B. Talabalar turar joylarida istiqomat qiladigan qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish masalalari (Turkiya tajribasi misolida)	147
Rustamova N.Y. Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari va samaradorligining ilmiy tahlili.....	154
Bakirova N.B. Professional ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash mexanizmlari....	161
Мусаева М.И. Ранняя реабилитация и социализация детей с двигательными нарушениями	168



Muxamedjanova Lalixon,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti "etika va estetika" kafedrası professori, f.f.n.
e-mail: lalixonm@gmail.com

OILAVIY MUNOSABATLARDA YUKSAK IDEALLAR – ADOLAT, MUHABBAT, DO'STLIK, BIRODARLIK, O'ZARO HURMAT-IZZAT TAMOYILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila ijtimoiy institut sifatida qaralib, uning barqarorligi va rivojlanishida adolat, muhabbat, do'stlik va birdamlik kabi yuksak qadriyatlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Oila jamiyatning muhim tarkibiy qismi sifatida shaxsni ijtimoiylashtirishda katta rol o'ynaydi. Muallif oilaviy munosabatlarning nazariy va metodologik tahlillariga asoslanib, Emil Dyurkgeym, Talkott Parsons, Jorj Gerbert Mid va Platon kabi mutafakkirlarning qarashlarini yoritadi.

Tayanch so'zlar: oila, ijtimoiy institut, muhabbat, do'stlik, adolat, ijtimoiylashuv, falsafa.

Аннотация. В данной статье семья рассматривается как социальный институт, анализируется значение таких высших ценностей, как справедливость, любовь, дружба и солидарность, в обеспечении её устойчивости и развития. Семья является важной частью общества и играет ключевую роль в социализации личности. Автор раскрывает теоретические и методологические аспекты семейных отношений на основе взглядов таких мыслителей, как Эмиль Дюркгейм, Толкотт Парсонс, Джордж Герберт Мид и Платон.

Ключевые слова: семья, социальный институт, любовь, дружба, справедливость, социализация, философия.

Annotation. This article considers the family as a social institution, analyzing the importance of such high values as justice, love, friendship, and solidarity in ensuring its stability and development. The family is an essential part of society and plays a key role in the socialization of individuals. The author explores the theoretical and methodological aspects of family relationships based on the views of thinkers such as Émile Durkheim, Talcott Parsons, George Herbert Mead, and Plato.

Keywords: family, social institution, love, friendship, justice, socialization, philosophy.

Kirish. Oila insoniyatning eng qadimiy va eng muhim ijtimoiy instituti hisoblanadi. U jamiyatning shakllanishi, shaxsiyatning ijtimoiylashuvi va madaniy qadriyatlarning uzluksizligini ta'minlaydi. Oila bolalarning ilk tarbiya va ta'lim maskani bo'lib, ularning axloqiy, ijtimoiy va ma'naviy qiymatlarini o'zlashtirishga ko'maklashadi. Oilada berilgan tarbiya bolaning kelajakda qanday shaxs bo'lib yetishishiga,

uning jamiyatda qanday o'rin tutishiga ta'sir qiladi. Oiladagi axloqiy qadriyatlar va qoidalar bolalarning axloqiy va ma'naviy rivojlanishiga yo'naltirilgan. Bu qoidalar jamiyatda to'g'ri yashash va munosabatlar o'rnatishga yordam beradi. Bolalar jamiyatdagi axloqiy qoidalarga amal qilishni o'rganadilar va ularning axloqiy ongi rivojlanadi. Emil Dyurkgeym (Durkheim, 1893) oilani jamiyatning asosiy tuzilmaviy bo'g'ini sifatida

ko'rib, uning ijtimoiy hamjihatlik va barqarorlikni saqlashdagi o'rnini alohida ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, oila jamiyatdagi madaniy, axloqiy va huquqiy normalarning uzatilishida hal qiluvchi institut hisoblanadi.

Maqsad va uni asoslash. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi oila institutining jamiyatdagi o'rnini, uning barqarorligi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qilishdir. Oila nafaqat insonning shakllanishida, balki jamiyatning umumiy ijtimoiy tuzilishida ham katta ahamiyatga ega. Tadqiqotda oilaviy qadriyatlar, tarbiya usullari va oilaning jamiyatdagi funksiyalari batafsil yoritiladi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Bugungi kunda oila institutining oldida turli xil muammolar mavjud. Globalizatsiya, urbanizatsiya va texnologik taraqqiyot oilaviy qadriyatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, oilaviy munosabatlarning o'zgarishi, nikoh va ajrashish darajasining ortishi kabi omillar jamiyatning umumiy tuzilishiga ta'sir qilmoqda. Ushbu muammolarni hal etish uchun oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish hamda ijtimoiy institutlarning oila bilan hamkorligini oshirish zarur.

Nazariy tahlil. Oila insoniyat tarixidagi eng qadimiy va muhim ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, u shaxsning ijtimoiylashuvi va jamiyat barqarorligida katta rol o'ynaydi. Oila jamiyatning asosiy tayanchi hisoblanib, unda madaniy qadriyatlar, an'ana va axloqiy me'yorlar avloddan avlodga yetkaziladi. Emil Dyurkgeym (Durkheim, 1893) oila institutining jamiyatdagi ahamiyatini tahlil qilib, uni insonlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar tizimining asosiy qismi deb ta'riflagan. Uning fikricha, oila nafaqat individuallik shakllanishiga, balki jamiyatning umumiy barqarorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. U o'zining maxsus tuzilishi, vazifalari va ijtimoiy qoidalari bilan ajralib turadi. Emil Dyurkgeym oila ijtimoiy institut sifatida jamiyatning asosiy tuzilmalaridan biri ekanini ta'kidlab, uning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini yuqori baholaydi. Uning fikriga ko'ra, "Oila jamiyatdagi har bir shaxsning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlaydi".

Parsons fikriga ko'ra, oila bolalarga o'z jamiyatining normalari va qadriyatlarini o'rgatadi,

¹ "The Anthem Companion to Émile Durkheim" kitobining 9-bobi. — "Durkheim's Theory of the Modern Family: Freedom, the State, and Sociology".

bu jarayon birinchi darajali ijtimoiylashuv deb ataladi. Bu ijtimoiylashuv jarayoni oilada boshlanadi va keyinchalik maktab, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy institutlar orqali davom etadi. Parsonsning bu fikrlari uning 1959-yilda nashr etilgan "The Social Structure of the Family" asarida ham keng yoritilgan². Jorj Gerbert Mid esa oilaning ijtimoiy institut sifatidagi vazifalarini tahlil qilib, oilada shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi va rollarni o'zlashtirishi jarayonini ta'kidlagan fikrlari uning "Mind, Self, and Society" asarida bayon etilgan. Ushbu asarda Mid bolalarning oilada ijtimoiy rollarni o'rganishlari va ijtimoiy qoidalarni o'zlashtirishlari jarayonini tahlil qiladi. Uning fikricha, oiladagi ijtimoiy munosabatlar orqali bolalar o'zlarining ijtimoiy "men"ini shakllantiradilar va jamiyatdagi turli rollarni o'zlashtiradilar. Oila insoniyatning tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo'lgan va hozirgacha saqlanib kelayotgan institut bo'lib, jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Oilada bolalarning ilk ijtimoiylashuv jarayoni amalga oshiriladi. Ular oilada axloqiy, madaniy va ijtimoiy qoidalarni o'zlashtiradilar³. Oilaviy munosabatlarda yuksak ideallar oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi, ularni bir-biriga bog'laydi va oilaning barqarorligiga hissa qo'shadi. Bu ideallar oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan munosabatlarini yo'naltirib, ularning o'zaro qo'llab-quvvatlashi va tushunishini ta'minlaydi.

Muhabbat — oilaviy munosabatlarning asosi bo'lib, oila a'zolari o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi. Muhabbat tufayli oila a'zolari bir-birlariga yordam berishga, qo'llab-quvvatlashga va himoya qilishga intiladilar. "Yaxshi ko'rish — bir-biringizni to'liq tushunish va qo'llab-quvvatlash". Sartning fikriga ko'ra, muhabbat ikki inson o'rtasidagi chuqur tushunish va qo'llab-quvvatlashdan iborat. U, shuningdek, muhabbatni "bir-birini obyektga aylantirish" va "ozodlikka bo'lgan talpinish" o'rtasidagi ziddiyatli jarayon sifatida ko'radi. U muhabbatni kuchli munosabat deb hisoblaydi, biroq unda ham subyekt, ham obyekt bo'lish istagi mavjudligi haqida gapiradi⁴. Sevgining

² Talcott Parsons. The Social Structure of the Family (1959).

³ George Herbert Mead's "Mind, Self, and Society" asarida, shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi va ijtimoiy rollarni o'zlashtirishiga oid fikrlar yoritilgan. Mind, Self, and Society.

⁴ Being and Nothingness. Concrete Relations with Others. 1956-yildagi Hazel Barnes tarjimasida: — B. 473-543.

maqsadi – boshqani subyekt sifatida tan olish, ammo shu bilan birga uning sizni ham tan olishini xohlash. Bu jarayon ziddiyatli: bir tomondan, biz sevgan odamimiz tomonidan qabul qilinishimizni xohlaymiz, lekin shu bilan birga, uning ozodligiga ta'sir ko'rsatishga ham harakat qilamiz.

Muhabbat – insonlar o'rtasidagi chuqur ehtiros va mehr-muhabbat tuyg'usi bo'lib, oilaviy munosabatlardagi eng muhim va asosiy qadriyatlardan biri. Muhabbat oila a'zolarini bog'laydi, ular o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi va ruhiy, emotsional hamda jismoniy barqarorlikni ta'minlaydi. “Avval boshda inson bir go'zal tanani yaxshi ko'radi va unga mehr qo'yadi, keyin u barcha go'zal tanalarning o'xshashligini anglab, hamma go'zal tanalarni sevisga o'tadi. Keyinchalik, u ruhiy go'zallik jismoniy go'zallikdan muhimroq ekanini tushunib, go'zal ruhlarga mehr qo'yadi. Shundan so'ng, u bilimlarning go'zalligini qadrlay boshlaydi va nihoyat, u go'zallikning o'zini, ya'ni mutlaq go'zallikni anglaydi⁵”.

Bu yerda Platon muhabbatni insonni oddiy jismoniy hirlardan oliy ruhiy va aqliy darajalarga olib chiqadigan kuch sifatida tasvirlaydi. Platonning fikricha, muhabbat insonni o'ziga tortuvchi kuch bo'lib, uning his-tuyg'ulariga jiddiy ta'sir qiladi.

Muhabbatning asosiy jihatlari.

Ruhiy yaqinlik. Muhabbat oila a'zolari o'rtasidagi ruhiy yaqinlik va bir-birlariga bo'lgan ehtirosni, shuningdek, muloqot, o'zaro tushunish, qo'llab-quvvatlash va g'amxo'rlik orqali ruhiy yaqinlikni saqlash va rivojlantirish kabi munosabatlarni ifodalaydi. Bu tuyg'u ularni bir-birlariga yaqinlashtiradi va mustahkam bog'liqlik yaratadi.

Qo'llab-quvvatlash va g'amxo'rlik. Muhabbat tuyg'usi oila a'zolarining bir-birlariga g'amxo'rlik qilish va qo'llab-quvvatlashga intilishini anglatadi. Bu jarayonda ularning ehtiyojlari va his-tuyg'ularini hamda oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro yordam hamda qo'llab-quvvatlash, bir-birlarining ehtiyojlarini tushunish va qondirishga intilishlarni inobatga olish muhim.

Hurmat va izzat. Muhabbat oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat va izzat munosabatlarini saqlash, har bir a'zoning fikri va his-tuyg'ularini qadrlashni ifodalaydi. Har bir a'zo bir-birlarining qadr-qimmatini va shaxsini hurmat qilishlari kerak.

Birdamlik va hamjihatlik. Muhabbat tuyg'usi oila a'zolarini birlashtiradi va ularning bir-birlariga yordam berishga tayyorligini oshiradi. Bu bog'liqlik oilaviy munosabatlar, oila a'zolari o'rtasidagi birdamlik va hamjihatlikni saqlash, birgalikdagi faoliyatlar orqali munosabatlarni mustahkamlaydi.

Mehr-sadoqat. Muhabbat tuyg'usi oila a'zolari o'rtasidagi mehr-sadoqat munosabatlarini yaratadi. Bu bog'liqlik oiladagi har bir a'zoning o'zini qadrlangan va himoyalangan his qilishini ta'minlaydi. Shuningdek, har bir a'zoning his-tuyg'ularini tushunish va qadrlash ham muhabbat tuyg'usini his qilishni ta'minlaydi.

Muhabbatning ahamiyati.

Emotsional barqarorlik. Muhabbat oila a'zolarining emotsional barqarorligini ta'minlaydi. Bu tuyg'u ularni stress va ruhiy bosimlardan himoyalaydi.

Ruhiy sog'lik. Muhabbat ruhiy sog'likni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Oila a'zolari o'rtasidagi mehr-muhabbat va qo'llab-quvvatlash ularning psixologik holatini yaxshilaydi.

Ijtimoiy munosabatlar. Muhabbat oila a'zolarining ijtimoiy munosabatlarini mustahkamlaydi va ularning jamiyatdagi roli hamda o'rnini belgilaydi.

Farovonlik. Muhabbat tuyg'usi oila a'zolarining umumiy farovonligini oshiradi. Bu tuyg'u ularning hayotdan qoniqish va baxtli bo'lishlarini ta'minlaydi.

Muhabbat oilaviy munosabatlarda asosiy qadriyatlardan biri bo'lib, oila a'zolari o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi va ularning jismoniy, ruhiy hamda emotsional barqarorligini ta'minlaydi. Muhabbat orqali oila a'zolari bir-birlarini tushunadilar, qo'llab-quvvatlaydilar va hurmat qiladilar. Bu tuyg'u oilaning barqarorligi va rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. “Muhabbatda doimo biroz aqlsizlik bor. Ammo doimo bu aqlsizlikda biroz aql ham bor.” Nitsshe muhabbatni inson hayotidagi irratsional tuyg'u deb hisoblaydi, lekin bu tuyg'u ham aqlga asoslangan holda amalga oshadi.

Mehr va g'amxo'rlik – ota-onalar hamda bolalar o'rtasidagi mehr-muhabbat va g'amxo'rlik. Mehr va g'amxo'rlik ota-onalar va bolalar o'rtasidagi mehr-muhabbatli va g'amxo'rlik munosabatlarini ifodalaydi. Bu munosabatlar oiladagi emotsional va ruhiy barqarorlikni ta'minlaydi hamda bolalarning shaxsiy rivojlanishi uchun muhim asos bo'lib

⁵ Платон. “Пир”. Tarjima va izohlar: A.N. Егунов. – Москва: “Прогресс”, 1984.

xizmat qiladi. Mehr va g'amxo'rlik tuyg'ulari ota-onalarning bolalarga bo'lgan muhabbati hamda ularning ehtiyojlarini tushunishga qaratilgan.

Ota-onalarning mehr-muhabbati va g'amxo'rligi.

Ta'lim va tarbiya. Ota-onalarning bolalarga bo'lgan mehr-muhabbati ularning ta'lim va tarbiya jarayonida ko'rinib turadi. Ota-onalar bolalarning ta'lim olishiga katta ahamiyat beradilar va ularni har tomonlama rivojlantirishga intiladilar. G'amxo'rlik ota-onalarda bolalarning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Ular bolalarga axloqiy qoidalarni o'rgatib, to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlarni ajratishni tushuntiradilar.

Emotsional qo'llab-quvvatlash. Ota-onalar bolalarning his-tuyg'ularini tushunadilar va ularni qo'llab-quvvatlaydilar. Bu jarayonda bolalar o'zlarini himoyalangan va xavfsiz his qiladilar. Ota-onalar bolalarning muvaffaqiyatlari va muammolariga hamdardlik bildirib, ularga yordam berishga tayyor bo'ladilar. Bu bolalarning o'zlariga bo'lgan ishonchini oshiradi hamda ularni ruhiy barqaror qiladi.

Ota-onalar bolalar bilan doimiy muloqotda bo'lib, ularning fikr va his-tuyg'ularini tushunishga harakat qiladilar. Bu muloqot bolalarning shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Bolalar ota-onalarga nisbatan hurmat va izzat munosabatini saqlaydilar. Bu munosabat oiladagi barqarorlik va tinchlikni ta'minlaydi. Bolalar ota-onalarning mehnatlari va sa'y-harakatlarini qadrlashlari kerak. Bu ularning o'z burch va mas'uliyatlarini anglashlariga yordam beradi.

Bolalar ota-onalarga yordam berishga va ularni qo'llab-quvvatlashga intiladilar. Bu jarayonda ularning o'zaro munosabatlari mustahkamlanadi. Bolalar ota-onalarning ehtiyojlarini tushunishga va ularga yordam berishga harakat qiladilar. Bu ularning shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ota-onalarning bolalarga bo'lgan mehr-muhabbati va g'amxo'rligi ularning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi, bolalar esa ota-onalarga nisbatan hurmat va izzat saqlab, ularga yordam berishga intiladilar. Bu o'zaro munosabatlar oilada tinchlik va barqarorlik muhitini yaratishga yordam beradi.

Adolat – oilada har bir a'zoning huquqlari va majburiyatlarini teng va adolatli taqsimlash. Adolat tamoyili bolalarga turli masalalarda to'g'ri

va noto'g'ri yo'ni ajratishni o'rgatadi, ularni mas'uliyatli va axloqiy shaxslar bo'lib yetishishga yordam beradi.

Oila a'zolarining barchasiga teng huquqlar va imkoniyatlar berish oila a'zolarining barchasini teng huquq va imkoniyatlar bilani ta'minlashni anglatadi. Bu tamoyil har bir a'zoning qadr-qimmatini va shaxsiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, oilada adolat va barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Oila a'zolari o'rtasidagi huquqlar va majburiyatlarning teng taqsimlanishi oilada adolat va barqarorlikni, shuningdek, oilaning har bir a'zosining o'z fikrini bildirish, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va shaxsiy ehtiyojlarini ta'minlash huquqiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Har bir a'zo o'z huquqlari va majburiyatlarini anglab, ularga amal qilishda mas'uliyatli bo'lishi kerak.

Gender tengligi esa oilada erkak va ayolning teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini anglatadi. Bu tamoyil oiladagi har bir a'zoning qadr-qimmatini hurmat qilish va gender rollari bo'yicha stereotiplarni yengishga qaratilgan.

Erkak va ayol tengligi – erkak va ayolning ta'lim olish, ishlash, qarorlar qabul qilish va uy ishlarini taqsimlashda teng huquqlarga ega bo'lishi.

Hurmat va himoya – gender tengligini ta'minlash orqali oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat va himoya muhitini yaratish. Oilada bolalarning huquqlari va ehtiyojlarini himoya qilish juda muhimdir. Bolalarni ta'lim olish va sog'liqni saqlashda, o'yin-kulgi hamda emotsional qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularning sifatli ta'lim olish huquqi himoya qilinishi va ta'lim muassasalariga kirish imkoniyati hamda huquqlari ta'minlash kerak.

Bolalarning emotsional va psixologik ehtiyojlarini qondirish, ularni mehr-muhabbat bilan qo'llab-quvvatlash shart hisoblanadi.

Oilada qariyalarning huquqlari va ehtiyojlarini himoya qilish ham muhimdir. Qariyalar o'zlarining hayot tajribasi va bilimlari bilan oilaga katta hissa qo'shadilar va ularning huquqlari hurmat qilinishi kerak. Qariyalarning sifatli sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish huquqini, ularni hurmat qilish, fikr va mulohazalarini qadrlashni ta'minlash kerak.

Oiladagi teng huquqlar uning har bir a'zosining qadr-qimmatini hurmat qilish va adolatli muhit yaratish uchun muhim ahamiyatga ega. Huquqlar va majburiyatlarning teng taqsimlanishi, gender

tengligi, bolalar va qariyalarning huquqlarini himoya qilish oiladagi barqarorlik va rivojlanishni ta'minlaydi. Bunday muhitda o'sgan bolalar jamiyatda ham adolatli va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishadilar.

Adolatli taqsimot – resurslar va mas'uliyatlarni adolatli taqsimlash. Adolatli taqsimot oiladagi resurslar, vazifalar va imkoniyatlarni adolatli hamda teng taqsimlashni anglatadi. Bu tamoyil oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga, adolatni ta'minlashga va umumiy farovonlikni oshirishga qaratilgan. Adolatli taqsimot oiladagi har bir a'zoning ehtiyojlarini hisobga olib, ularga teng imkoniyatlar va huquqlar berishni nazarda tutadi.

Moliyaviy resurslarning taqsimlanishi. Oiladagi moliyaviy resurslarni adolatli taqsimlash har bir a'zoning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashni, shu jumladan, daromadlarning teng taqsimlanishi, har bir a'zoning shaxsiy ehtiyojlariga qarab mablag' ajratish, muhim sarf-xarajatlar uchun umumiy mablag'larni birgalikda rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Vazifalar va mas'uliyatlarning taqsimlanishi. Oiladagi vazifalar va mas'uliyatlarni adolatli taqsimlash oila a'zolarining bir-birlariga nisbatan majburiyatlarini to'g'ri belgilash va ularni bajarishni ta'minlashni hamda uy ishlari, bolalar parvarishi, keksa va bemorlarning qaramog'ida bo'lish kabi vazifalarni adolatli taqsimlash, har bir a'zoning imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi.

Ta'lim va rivojlanish imkoniyatlari. Oilaning har bir a'zosiga ta'lim olish va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini adolatli taqdim etish ularning shaxsiy o'sishi va rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, bolalarga ta'lim olish imkoniyatlarini taqdim etish, shaxsiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlash, har bir a'zoning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash kerak bo'ladi.

Ehtiyojlarga yarasha taqsimot. Oila a'zolarining ehtiyojlarini hisobga olib, resurslar va imkoniyatlarni ularning shaxsiy holatlariga ko'ra taqsimlash, kasallik yoki murakkab sharoitlardagi a'zolarga qo'shimcha yordam ko'rsatish, bolalar va qariyalar uchun maxsus resurslar ajratish, har bir a'zoning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olish lozim. Adolatli taqsimotning afzalliklari quyidagilardan iborat:

– adolatli taqsimot oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi va oilaning umumiy barqarorligini ta'minlaydi;

– resurslar va vazifalarning adolatli taqsimlanishi oila a'zolarining o'zaro yordam berish va hamjihatlikda ishlash qobiliyatini oshiradi;

– har bir a'zoning ehtiyojlari qondirilganida, oilada umumiy farovonlik va qoniqish darajasi oshadi.

Bolalar adolatli taqsimot tamoyillarini o'rganadilar va bu ularning shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Adolatli taqsimot oiladagi resurslar, vazifalar va imkoniyatlarni adolatli hamda teng taqsimlashni ta'minlaydi. Bu tamoyil oila a'zolarining huquqlari va majburiyatlarini himoya qiladi, ularning shaxsiy rivojlanishi va farovonligiga yordam beradi. Adolatli taqsimot oiladagi barqarorlik, birdamlik va umumiy farovonlik uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Do'stlik – oila a'zolari o'rtasidagi hamkorlik va bir-birlariga ishonch. Do'stlik munosabatlari bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga va ularning kelajakdagi hayotlarida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Do'stlik oilaviy munosabatlarda muhim rol o'ynaydigan va insonlar o'rtasidagi chuqur ehtiros, ishonch hamda o'zaro tushunishni ifodalaydigan munosabatlardan biridir. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi do'stlik munosabatlari oiladagi umumiy muhitni yaxshilaydi, oila a'zolarining bir-birlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va emotsional barqarorlikni ta'minlaydi.

Do'stlikning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Ishonch – do'stlikning asosi bo'lib, oila a'zolari o'rtasidagi ishonch munosabatlarining mustahkam bo'lishiga yordam beradi. Ishonchli munosabatlar oila a'zolarining bir-birlariga bo'lgan ishonchini oshiradi va o'zaro qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Bolalar va ota-onalar o'rtasida doimiy va ochiq muloqot orqali ishonchli muhit yaratiladi.

O'zaro tushunish. Do'stlik oila a'zolarining bir-birlarini tushunish va his-tuyg'ularini qadrlashga asoslanadi. Oila a'zolarining his-tuyg'ularini inobatga olish, ularning fikr va ehtiyojlarini tushunishga harakat qilish, o'zaro tushunish oiladagi emotsional bog'liqlikni mustahkamlaydi.

Hamkorlik. Do'stlik munosabatlari oila a'zolarining birgalikdagi ishlari va faoliyatlarida

hamkorlik qilishni nazarda tutadi. Hamkorlik oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida bog'liqligini oshiradi. Uy ishlarini birgalikda bajarish, qiyinchilikni birgalikda yengib o'tish va umumiy maqsadlarga erishishda hamkorlik o'z aksini topadi.

Mehr-muhabbat: Do'stlik mehr-muhabbat va g'amxo'rlik munosabatlarini o'z ichiga oladi. Mehr va g'amxo'rlikni ko'rsatish, bir-birlarining ehtiyojlarini tushunish va qondirishga intilish kabi munosabatlar oila a'zolarining bir-birlariga bo'lgan muhabbatini mustahkamlaydi.

Qo'llab-quvvatlash. Do'stlik qo'llab-quvvatlash va yordam berishga asoslanadi. Oila a'zolari bir-birlarini qiyin paytlarda qo'llab-quvvatlaydilar. Muvaffaqiyat va qiyinchiliklarni birgalikda bo'lishish, o'zaro yordam berishda qo'llab-quvvatlash muhim rol o'ynaydi.

Farovonlik. Do'stlik munosabatlari oiladagi umumiy farovonlikni oshiradi va oila a'zolarining hayotdan qoniqishini ta'minlaydi.

Do'stlik oilaviy munosabatlarda asosiy qadriyatlardan biri bo'lib, oila a'zolari o'rtasidagi ishonch, o'zaro tushunish, hamkorlik va qo'llab-quvvatlash munosabatlarini mustahkamlaydi. Do'stlik tuyg'ulari oila a'zolarining bir-birlariga mehr-muhabbat va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. Bu tuyg'ular oiladagi umumiy muhitni yaxshilaydi, oila a'zolarining hissiy va ruhiy barqarorligini ta'minlaydi. Do'stlik munosabatlari oila a'zolarining shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarini yaxshilashga yordam beradi.

Oil a'zolari o'rtasidagi ishonchli munosabatlar. Ishonch – oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning asosi bo'lib, ularning bir-birlariga nisbatan ishonchli va hurmatli munosabatlarni saqlashlariga yordam beradi. Ishonchli munosabatlar oiladagi barqarorlik va farovonlikni ta'minlaydi, shuningdek, bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ishonchning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Ochiq muloqot. Oila a'zolari o'rtasida doimiy va ochiq muloqot ishonchli munosabatlarning asosidir. Ochiq muloqot orqali ular o'z fikr va his-tuyg'ularini erkin bildirishlari mumkin. Ota-onalar va bolalar o'rtasida ochiq hamda samarali muloqotni rag'batlantirish, har bir a'zoning fikrini tinglash va qadrlashni erkin amalga oshirish uchun ochiq muloqotni shakllantirish lozim.

Ishonch va hurmat. Oila a'zolari bir-birlariga nisbatan ishonch va hurmat tuyg'ulari bilan munosabatda bo'lishlari kerak. Har bir a'zoning shaxsiy hayoti va qarorlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularning shaxsiy huquqlarini himoya qilish kabi tuyg'ular oiladagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlaydi.

Qo'llab-quvvatlash. Ishonchli munosabatlar oila a'zolarining bir-birlariga yordam berish va qo'llab-quvvatlashga asoslangan. Bu jarayonda ular o'zlarini himoyalangan va qadrlangan his qiladilar. Oila a'zolarining muvaffaqiyatlari va muammolarida yordam berish, ularga ruhiy va emotsional qo'llab-quvvatlash ko'rsatish muhim hisoblanadi.

His-tuyg'ularni tushunish. Oila a'zolari bir-birlarining his-tuyg'ularini tushunib, ularga nisbatan empatiya bilan munosabatda bo'lishlari kerak. Har bir a'zoning his-tuyg'ularini inobatga olish, ularning ehtiyojlarini tushunishga harakat qilish oiladagi bog'liqlikni mustahkamlaydi.

Ishonchli munosabatlarning ahamiyati.

Emotsional barqarorlik. Ishonchli munosabatlar oila a'zolarining hissiy barqarorligini ta'minlaydi va ularning ruhiy sog'ligini yaxshilaydi. Oiladagi ishonchli muhit uning a'zolarining ruhiy sog'ligini saqlashga yordam beradi.

Ijtimoiy munosabatlar. Ishonchli munosabatlar bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularning jamiyatda faol va ishonchli shaxslar bo'lib yetishishlariga yordam beradi. Ishonchli muhit oiladagi umumiy farovonlikni oshiradi va a'zolarining hayotdan qoniqishini ta'minlaydi. "Jamiyatning har bir yangi avlodi oldingisi tomonidan tarbiyalanadi; shuning uchun, oldingi avlod o'zini isloh qilishi kerak, shundagina keyingi avlodni yaxshilay oladi." Dyurkgeymning fikriga ko'ra, ijtimoiy munosabatlar va jamiyat taraqqiyoti avloddan avlodga o'tishi bilan birgalikda yaxshilanadi.

Ishonch – oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning asosi bo'lib, ularning bir-birlariga nisbatan ishonchli va hurmatli munosabatda bo'lishlariga yordam beradi. Ishonchli munosabatlar oilada barqarorlik va farovonlikni ta'minlaydi, bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, oila a'zolari o'rtasida ochiq muloqot, hurmat, qo'llab-quvvatlash va empatiya munosabatlariga oilada ishonchli muhit yaratish orqaligina erishish mumkin. Bu muhit oila a'zolarining emotsional va

ruhiy barqarorligini ta'minlaydi, ularning shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yakuniy qism. Bugungi kunda oilaviy munosabatlarda yuksak qadriyatlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Jamiyatda ro'y berayotgan texnologik va iqtisodiy o'zgarishlar oilaning ijtimoiy tuzilmasiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Muhabbat, adolat, do'stlik va birdamlik kabi qadriyatlar nafaqat shaxsiy munosabatlarda, balki keng jamoatchilik doirasida ham barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila ijtimoiy institut sifatida insoniyatning rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Uning barqarorligi jamiyatning umumiy barqarorligiga bevosita bog'liq. Oilaning ma'naviy va axloqiy qadriyatlari jamiyat taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, oiladagi tarbiya va ta'lim tizimini yaxshilash hamda oilaning jamiyatdagi rolini oshirish lozim.

Amaliy takliflar:

– oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va yoshlarni oila institutiga tayyorlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish;

– ta'lim tizimida oilaviy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi maxsus kurslarni joriy etish;

– oilalarga psixologik va pedagogik yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish;

– oila va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni oshirish maqsadida turli xil ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish va shu kabi chora-tadbirlar oilaviy munosabatlarning mustahkamligi va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Maqolada ijtimoiy-falsafiy tahlil metodlari qo'llanildi. Oilaviy munosabatlar struktur-funksional yondashuv, fenomenologiya va tarkibiychilik nazariyalari asosida tahlil qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "The Anthem Companion to Émile Durkheim" kitobining 9-bobi – "Durkheim's Theory of the Modern Family: Freedom, the State, and Sociology".
2. Talcott Parsons. The Social Structure of the Family (1959)
3. George Herbert Mead's "Mind, Self, and Society" asarida, shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi va ijtimoiy rollarni o'zlashtirishiga oid fikrlar yoritilgan. Mind, Self, and Society.
4. Being and Nothingness. Concrete Relations with Others. 1956-yildagi Hazel Barnes tarjimasida. – B. 473-543.
5. Платон. "Пир". Таржима ва изоҳлар: А.Н. Егунов. – Москва: "Прогресс", 1984.

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**
Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,
Jabborov U.**
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 27.12.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.